

O'ZBEKISTONDA TAEKVONDO WT SPORT TURINING RIVOJLANISHI VA ERISHILGAN YUTUQLAR

Yuldasheva Jamilaxon Muxtorovna

QDPI Jismoniy madaniyat metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Turg'unov Joxongirmirzo Avazbek o'g'li

Talaba

Annatsiya. Statistik ma'lumotlarga ko'ra Taekvondoning WTF yo'nalishiga 1961-yil Koreya Respublikasida asos solingan. 2000-yil taekvondo (WTF) Sidney olimpiadasi dasturidan o'rin oldi. Taekvondo (WTF) sportchilarning qo'l oyoqlarda tananing beldan yuqori, old qismiga zarbalar berishiga ruxsat etadi. Musobakalar (8 vazn toifasida) sportchilarning himoya vositalarini kiygan holda tashkil qilinib, 3 bo'limda (har bo'lim 3 min.dan, tanaffuslar -1 min. dan) davom etadi. Aniq zarbalarga ochko beriladi. G'olib nokaugga yoki ochkolar ko'pligiga qarab aniklanadi Taekvondo (WTF) O'zbekistonda 1990-yildan ommaviylashdi va o'sha yili respublika taekvondo (WTF) federatsiyasiga asos solindi. Bu federatsiya 1992-yilda O'zbekiston taekvondo (WT) assotsiatsiyasi nomi bilan kayta ro'yxatdan o'tdi va 1993-yilda WT ra'zo bo'ldi. Uning viloyatlarda bo'limlari bor, 10 dan ortiq shahar taekvondo (WT) klubi, tumanlardagi to'garaklarida 200 ga yaqin murabbiy 20 mingdan ziyod T.chi bilan mashg'ulot olib boryapti (2023). O'zbekistonda taekvondo (WT) musobakalari muntazam o'tkazilyapti va sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda ham qatnashyapti.

Kalit so'zlar: Taekvondo (WTF), ITF — International Taekwon-Do Federation, Oh Do kvoni (maktabi), Tae Soo Do nomi (跆拳道), +87 kg vaznda.

Taekvondo (koreyscha: tae-oyoq, kvon -qo'l, do-yo'l, ya'ni oyoq va qo'llarning qarakat yo'li) -sport kurashi turi. Bunda erkak va ayollar belgilangan maydonchada o'z vazn toifalarida (himoya vositalarida) yakkamayakka olishish va maxsus mashklarni bajarish mahoratini namoyish etish borasida yakka va jamoavii tarzda oyoqqo'llarda zarbalar berish yoki zarba xarakterlarini qayd etish bo'yicha musobaqalashadilar. T.da musobakalar 2 yo'nalishda - Xalqaro taekvondo federatsiyasi (ITF; 1966-yil tuzilgan, 140 dan ortiq mamlakat a'zo) va Jahon taekvondo federatsiyasi (WTF; 1973-yil tuzilgan, 140 dan ortiq mamlakat a'zo) yo'nalishlarida tashkil etiladi. T. asli koreys xalqining kurash turi hisoblanadi. Miloddan 600 y. ilgari koreislar jang qilish va himoyalani vositasi sifatida uning usullarini qo'llaganlar. T.ning rivojlanishida subak, xvaran va boshqa kurash yo'nalishlari muhim rol o'ynadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Taekvondoning ITF yoʻnalishiga 1955-yil KXDRda asos solingan. Bu yoʻnalishda sportchilarning boshga tepishi, beldan pastga zarba berish, umuman, tananing ruxsat etilgan qismiga ham oyoq bilan toʻliq zarba berish taqiqlangan. Shuningdek, qoʻl bilan ham kuchli zarba berishga ruxsat etilmaydi. Musobaqalar (5 ta vazn toifasida) 2 boʻlimda (har boʻlim 2 min.dan, tanaffus — 1 min.) davom etadi. Aniq, zarbalarga ochko beriladi. Maxsus mashklarni bajarishga maʼlum vaqt ajratiladi va ijro texnikasi baholandi.

Taekvondoning WTF yoʻnalishiga 1961-yil Koreya Respublikasida asos solingan. 2000-yil taekvondo (WTF) Sidney olimpiadasi dasturidan oʻrin oldi. Taekvondo (WTF) sportchilarning qoʻlloqlarda tananing beldan yuqori, old qismiga zarbalar berishiga ruxsat etadi. Musobakalar (8 vazn toifasida) sportchilarning himoya vositalarini kiygan holda tashkil qilinib, 3 boʻlimda (har boʻlim 3 min.dan, tanaffuslar — 1 min. dan) davom etadi. Aniq zarbalarga ochko beriladi. Gʻolib nokaugga yoki ochkolar koʻpligiga qarab aniklanadi.

Oʻzbekistonda taekvondo (ITF) 1989-yildan ommaviylashdi. Oʻsha yili Oʻzbekiston taekvondo (ITF) federatsiyasi tuzildi va ITFra qabul qilindi. Bu federatsiya 2000-yilda Oʻzbekiston taekvondo (ITF) milliy assotsiatsiyasi nomi bilan qayta roʻyxatdan oʻtdi. Uning viloyatlarda boʻlimlari tuzilgan, 40 dan ziyod taekvondo (ITF) klublari faoliyat koʻrsatadi. 200 dan ortiq murabbiy 50 mingdan koʻproq T.chi bilan shugʻullanmoqsa (2004). OʻzRda taekvondo (ITF) musobaqalari muntazam oʻtkaziladi va oʻzbekistonlik sportchilar xalqaro musobaqalarda ham ishtirok etishadi. Poʻlat Usmonov, Laziz Hasanov, Valeriy Pak, Aleksandr Shubskiy, Viktor Nikolayev va boshqa taekvondo (ITF) ning Oʻzbekistondagi dastlabki targʻibotchilari boʻlishgan. Endilikda ular yetakchiligida Botir Mamedov, Dmitriy Nim, Nasriddin Tolipov, Shahnoza Shuqratjonova, Alefina Kim, Moisey Nogay kabi oʻnlab sportchilar Osiyo va jahon chempionatlari, nufuzli musobaqalarda sovrindorlar qatoridan oʻrin Olishdi. Taekvondo (WTF) Oʻzbekistonda 1990-yildan ommaviylashdi va oʻsha yili respublika taekvondo (WTF) federatsiyasiga asos solindi. Bu federatsiya 1992-yilda Oʻzbekiston taekvondo (WTF) assotsiatsiyasi nomi bilan kayta roʻyxatdan oʻtdi va 1993-yilda WTFra aʼzo boʻldi. Uning viloyatlarda boʻlimlari bor, 10 ta shahar taekvondo (WTF) klubi, tumanlardagi toʻgaraklarida 200 ga yaqin murabbiy 17 mingdan ziyod T.chi bilan mashgʻulot olib boryapti (2004). Oʻzbekistonda taekvondo (WTF) musobakalari muntazam oʻtkazilyapti va sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda ham qatnashyapti. Olek Pak, Adik Li, Aleksandr Shubskiy, Laziz Hasanov, Aleksey Kan va boshqa taekvondo (WTF) ning yurtimizdagi dastlabki targʻibotchilari boʻlishgan. Yevgeniy Xan, Eduard Xegay, Ravshan Toshpoʻlatov, Umid Dadaxonov, Sanjar Mansurov,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Natalya Mikryukova kabi sportchilar Osiyo va jahon chempionatlari, nufuzli musobaqalarda medallarni qoʻlga kirit

Koreyada yapon ishğʻoli hamda Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan 1945-yildan boshlab Seulda kvonlar deb ataluvchi yangi jang sanʻati maktablari ochiladi. Bu maktablar koreys jang sanʻati ustalari tomonidan yapon hamda xitoy jang sanʻatlari boʻyicha asos solingan. Oʻsha davrda yapon mustamlakachi hukumati qatagʻoni tufayli mahalliy sport turlari (masalan Taekkyeon) umuman unutilgan edi. Odatda taekvondo atamasi 1940-50 yillarda kvonlar tomonidan mashq qilingan jang sanʻati maʼnosini bildiradi, biroq u davrda taekvondo atamasi ishlab chiqilmagan va har bir kvon (maktab) oʻziga xos jang qilish uslubini mashq qilar edi.

1952-yil Janubiy Koreya prezidenti Sinman Ri Koreya Respublikasi armiyasining 29-piyodalar diviziyasi zobitlari Choy Hong-hi hamda Nam Tay-hilar tomonidan namoyish etilgan jang sanʻati guvohi boʻladi. U namoyish qilinayotgan texnikani Taekkyeon deb notoʻgʻri tushunadi va bu jang sanʻatini armiyaga yagona tizim ostida joriy etishga undaydi. 1955-yildan boshlab kvonlar rahbarlari Koreyaning yagona jang sanʻatini yaratish imkoniyatlarini jiddiy muhokama qila boshladilar. Oʻshangacha Tang Soo Do yaponcha kanji (唐手道) ning koreyscha hanja talaffuzidan foydalanib, koreys karatesi nomini berish uchun ishlatilgan. Tae Soo Do nomi (跆拳道) ham koreys jang sanʻatini birlashtirilgan uslubini tasvirlash uchun ishlatilgan. Bu nom hanjadagi 跆拳道 „yanchmoq, oyoq osti qilmoq“, 手 su „qoʻl“ va 道 do „yoʻl, tartib“ soʻzlaridan tashkil topgan.

Choy Hong Hi su „qoʻl“ soʻzini 拳 kwon „musht“ soʻzi bilan almashtirib Tae Kwon Do nomidan foydalanishni qoʻllab-quvvatladi. Bu nom, prezidentning fikriga koʻra, Taekkyeon talaffuziga eng yaqin boʻlgan. Yangi nom kvonlar yetakchilari orasida juda sekin tarqaldi. Bu vaqt ichida taekvondo Janubiy Koreya harbiylari tomonidan foydalanish uchun qabul qilindi, bu esa fuqarolik jang sanʻatlari maktablari orasida mashhurligini oshirdi

2021-yildan beri taekvondo Olimpiya oʻyinlariga kiritilgan uchta Osiyo jang sanʻatlaridan biri (qolgan ikkitasi dzyudo va karate) hisoblanadi. Bu 1988-yil Seulda boʻlib oʻtgan Olimpiadada namoyish tadbiri sifatida boshlandi, oradan bir yil oʻtib, Pan Amerika oʻyinlarida medalli musobaqa koʻrinishida tashkillashtirildi va 2000-yilda Sidneyda boʻlib oʻtgan Olimpiada oʻyinlarida rasmiy medallar musobaqasi boʻldi. 2010-yilda taekvondo Hamdoʻstlik oʻyinlari sport turi sifatida qabul qilindi.

2013 yil Avgustda Xitoyning Nankin shahrida oʻtkazilgan oʻsmirlar oʻrtasidagi II Osiyo oʻyinlarida qatnashgan ikki sportchimiz – 62 kilogramm vazn toifasida Gʻanijon Hurliboyev va 55 kilogramm vaznda qizlar musobaqasida

Dinoraxon Mamadibrohimova uchinchi o‘rinni egalladi. Rashitov Ulug‘bek Ismatullayevich 2002-yil 23-mart) o‘zbekistonlik taekvondochi, O‘zbekiston terma jamoa a‘zosi. 2020-yilgi Yozgi Olimpiada o‘yinlarida chempion bo‘lgan. O‘zbekiston terma jamoasi tarixida taekvondo bo‘yicha Olimpiada o‘yinlarida birinchi oltin medalni qo‘lga kiritdi. Xalqaro harbiy o‘yinlari va taekvondo bo‘yicha Osiyo chempioni.

2018-yilda Ulug‘bek Rashitov Buenos Ayresda (Argentina) bo‘lib o‘tgan o‘smirlar o‘rtasidagi Yozgi Olimpiada o‘yinlarida yoshlar o‘rtasida 48 kg gacha vazn toifasida kumush medalni qo‘lga kiritdi va finalda rossiyalik sportchi Dmitriy Shishkoga yutqazdi.

O‘zbekiston terma jamoasi tarixida taekvondo bo‘yicha Olimpiada o‘yinlarida birinchi o‘rin sohibi bo‘lib, oltin medalni qo‘lga kiritdi

2022-yilda 24-iyunda Chuncheonda (Koreya Respublikasi) bo‘lib o‘tgan taekvondo bo‘yicha Osiyo chempionatida u 68 kg gacha vazn toifasida final bahsida iordaniyalik sportchi Zaid Karimni mag‘lub etib, oltin medalini qo‘lga kiritdi

Ular o‘tgan davr ichida ham Pumse terma jamoasi bosh murabbiyi Aleksandr Ni boshchiligida bir nechta xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelayotganini ta’kidlab o‘tish lozim. XXI Osiyo chempionatida ishtirok etgan Jasur Boyqo‘ziyev va Dmitriy Shokin o‘z vazn toifasida barcha raqiblarini mag‘lubiyatga uchratib, shohsupaning eng yuqori pog‘onasidan joy oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining PQ-127-sonli qarori
2. Taekvondo nazariyasi va uslubi: darslik / G.B.Abdurasulova [va boshq.]. - Toshkent: «Turon-Iqbol», 2015. - 564 b.
3. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
4. Umarova, Z. U., & Ugli, Y. D. N. (2023). Innovative technologies and their application in sports.
5. Akramjonovich, Y. I., & Ismoilovna, Y. F. (2023). Fitness development and training in youth education. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 492-495.
6. Kudratshoevich, S. E. (2023). Monitor of the student's physical culture formation. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 204-211.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

7. Umarov, A. A., & Umarova, Z. U. (2023). Talaba-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy va harakatli o'yinlarning o'rni. *Scientific progress*, 4(1), 260-265.
8. Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Муминов, Ш. И. (2022). Исследование функциональных показателей юных пловцов. *Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations*, 1-6.
9. Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. *International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(11), 220-224.
10. Akramjonovich, Y. I., & Ismailovna, Y. F. (2023). Development and Improvement of The Motor Qualities of Volleyball Players Based on The Educational and Training Process. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S6), 1499-1503.

